

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN.....211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.....214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH.....219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI.....226-231

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Sidiqov Jasurbek Baxtiyor o'g'li

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: sidiqovjasurbek17@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, O'zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish masalasi yoritilgan. Muallif ijtimoiy innovatsiyalar tarixiga to'xtalib, ularning inson hayotini yaxshilashdagi rolini ochib beradi. Asosiy to'siqlar sifatida institutsional muammolar, past darajadagi inson kapitali va moliyaviy cheklovlar ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy innovatsion loyihalarga BMT dasturlari, Tech4Impact, WikiStipendiya va Art Station kabi misollar keltirilgan. Xulosa o'rnida maqola ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy innovatsiyalar; inson kapitali; institutsional to'siqlar; moliyaviy cheklovlar; miya oqimi; internetga ulanish; startup; ekologik innovatsiyalar; O'zbekiston; ta'lim sifati; chet el investitsiyalari.

THE PROBLEMS AND SOLUTIONS IN IMPLEMENTING SOCIAL INNOVATIONS

Sidiqov Jasurbek Baxtiyor o'g'li

Namangan State University, Faculty of Economics, 3rd-year student

E-mail: sidiqovjasurbek17@gmail.com

Annotation. This article explores the implementation of social innovations in developing countries, with a focus on Uzbekistan. The author traces the origins of the concept and emphasizes its role in improving people's lives. Key challenges are highlighted, such as institutional barriers, low human capital, and financial constraints. The article presents several examples of social innovation projects in Uzbekistan, including UN programs, Tech4Impact, WikiStipendiya, and Art Station. In conclusion, it argues that investing in social innovations can foster societal and economic progress.

Key words: social innovations; human capital; institutional barriers; financial constraints; brain drain; internet access; startup; ecological innovations; Uzbekistan; quality of education; foreign investment.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-13>

XX asrga kelib mamlakatlar falsafasi tubdan o'zgarishga yuz tuta boshladi. Ularning bosh maqsadi o'z xalqiga xizmat ko'rsatishga evrila bordi. Hozirgi kunga kelib esa, ijtimoiy innovatsiyalar rivojlangan mamlakatlarda ixtiro qilinyapti va insonlar hayotiga faol ravishda havola etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bunday islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi intilishlar ko'zga tashlanadi. "Ijtimoiy innovatsiya" tushunchasining o'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekiston Respublikasida nisbatan yangi tushuncha deb bilinadi. Ijtimoiy innovatsiya tushunchasi, dastlab, 1960-yillarda G'arb ilmiy doiralarida tilga olinib boshlaydi. 2000-yillarga kelib, University College London tadqiqot universiteti professori Jeffri Jon Malgan (Geoffrey John Mulgan) ushbu atamani quyidagicha ta'riflaydi: *"ijtimoiy ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat va xizmatlar bo'lib, ular, asosan, ijtimoiy maqsadni asosiy vazifa deb biladigan tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va tarqatiladi"*.¹ Ijtimoiy innovatsiyaga misol sifatida "Wikipedia"dan tortib uysizlar

¹ Mulgan, Geoff; Tucker, Simon; Ali, Rushanara; Sanders, Ben (2007). Social Innovation: What It Is, Why It Matters and How It Can Be Accelerated (Report). ISBN 978-1-90-5551-03-3.

uchun bepul oshxonalargacha keltirib o'tish mumkin. Lekin bu kabi innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishda muammolar yuzaga kelishi kuzatiladi. Muammolar tizimli bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Institutsional va siyosiy to'siqlar. Ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etishdagi bosh muammolardan biri bo'lib, asosan, hukumatning samarasizligiga borib taqaladi. Bu innovatsiyalarni targ'ib etuvchi tashkilotlarga alohida status berilmasligi u tashkilotlar uchun faoliyat yuritishni murakkablashtiradi va yoki mamlakatda ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar mavjud bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, bu innovatsiyalardan zarar ko'rishi mumkin bo'lgan doiralar tomonidan ularga qarshi lobbilar tuzilishi mumkin.

2. Past darajadagi inson kapitali. Ta'lim sifatining pastligi inson kapitaliga salbiy ta'sir o'tkazadi. Natijada, insonlarda yangilik qilish imkoni mavjud bo'lmaydi va jamiyatdagi turg'unlik davom etadi. Shuningdek, internet tarmog'iga ulanishning qiyinligi ham insonlardagi dunyoqarash va bilimni quyi sathlarda ushlab turadi. Masalan, Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda internetdan foydalanuvchi aholi 90%dan baland bo'lsa, qoloq mamlakatlarda bu ko'rsatkich past darajada. Xususan, 2023-yilda afg'on xalqining 18%igina internetga bog'lana olgan.¹

3. Moliyaviy cheklovlar. Ijtimoiy innovatsiyalardan birlamchi maqsad daromad olish bo'lmagani uchun bu kabi tashabbuslar moliyalashtirilmay qolishi kuzatiladi. Zero, daromad olish payidagi investorlar bu kabi loyihalarga e'tibor qaratmaydi. Banklar tomonidan kredit ajratilishi ham qiyinroq kechadi. Natijada, ijtimoiy-innovatsion loyihalar faqatgina davlat grantlariga tayanishga majbur bo'ladi. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, dolzarbdir. Chunki bu mamlakatlar hukumatlari mablag'ni iqtisodiy sektorga yoki ijtimoiy sohaga yo'naltirishdek ikkilanish oldida turadilar.

Shu va boshqa bir qator sabablarga ko'ra, mamlakatlar ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq eta olmaydilar. Bu muammolarga yechim topish g'oyat muhimdir chunki ijtimoiy innovatsiyalarga e'tibor qaratmaslik bir qator oqibatlariga olib keladi:

1. Insonlar hayot sifatining oshmasligi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy innovatsiyalardan bosh maqsad insonlarga qulaylik yaratishdir. Ularsiz inson hayoti yaxshilanishdan to'xtaydi. Shuningdek, ijtimoiy innovatsiyalarga e'tiborsizlik ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, ya'ni aholining boy qatlamigina ilm-fan yutuqlaridan foydalana oladi, yo'qsil aholi esa u kabi texnologiyalarni o'ziga ravo ko'ra olmaydi.

2. Boy berilgan iqtisodiy potensial. Ayrim ijtimoiy innovatsiyalar insonlarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga urinadi. Masalan, Bangladeshdagi 1976-yilda asos solingan "Grameen Bank" tomonidan kambag'allarga, ayniqsa, qishloq ayollariga mikrokreditlar ajratila boshlagan (unga qadar ularning kreditni qaytara olmasligidan cho'chigan banklar ularga kredit berishdan bosh tortgan). Natijada, ular o'zlarining kichik bizneslariga ega bo'lganlar. Aks holda, millionlab bangladeshliklar qashshoqliklaricha qolib ketishlari mumkin edi.

3. "Miya oqimi". Bir mamlakatda moliyalashtirilmay qolgan istiqbolli loyihalar chet el sarmoyadorlari tomonidan o'zlashtirilishi, loyiha asoschilari ham ular tomonga og'dirib

¹ <https://data.worldbank.org/indicator/IT.NET.USER.ZS>

olinishi mumkin. Natijada, yillar davomida parvarishlangan inson kapitalini qo'ldan boy beriladi va yuksak aqliy salohiyatga ega aholi qatlamining immigratsiyasini to'xtatib bo'lmaydi.

4. Aqliy sahohiyatning pastligi. Ijtimoiy innovatsiyalarga befarqlik nafaqat istiqbolli kadrlarning mamlakatdan chiqib ketishiga, balki ular kabi salohiyatli yangi avlod yaralmasligiga ham olib keladi. XXI asrda texnologik qoloqlik xalqlarning o'zligi bo'lmish tili, dini va madaniyatini yo'qolishi bilan tugashi mumkin. Masalan, 2008-yilda ingliz tili va texnologiyalar ta'siri ostida Amerika Qo'shma Shtatlarida eyak tili o'lik tilga aylandi.¹

5. Tabiatga ziyon. Ko'plab ijtimoiy innovatsiyalar "ekodo'stona" tavsifga ega ("ekodo'stona" so'zi ingliz tilidagi "ecofriendly" so'zining o'zbekcha muqobili bo'lib, "ekologiyaga zarar bermaydigan, ziyonning oldini oladigan" degan ma'nolarni anglatadi). Ularsiz tabiat ifloslanishda davom etadi. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qisqarishiga, chuchuk suv zaxiralarining kamayishiga, aholi sog'lig'ining yomonlashuviga va iqlim migratsiyasiga olib keladi.

Mamlakatlar yuqoridagi kabi vaziyatlarga tushib qolishlarining oldini olishlari uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo'llashlari kerak bo'ladi. Negaki, yuqoridagi kabi oqibatlarni bartaraf etish oson kechmaydi:

1. Institutsional va qonunchilikdagi islohotlar. Mamlakatda ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etishda uzoq muddatli strategiyaga ega bo'lish uchun, dastlab, unga qonuniy asos yaratish kerak bo'ladi. Bu borada dunyoning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiy innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga maxsus status va bonuslar beriladi va bu ularning faoliyat yuritishi uchun yengilliklar yaratiladi.

2. Ilm-fanga sarmoya. Mamlakat uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun ilm-fan va tadqiqotlarni ko'proq moliyalashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun hukumat davlat mablag'larini tadbirlar, infratuzilma loyihalaridan ko'ra ko'proq ta'lim sifati, tadqiqotlar va startap g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishi kerak. Inson kapitalining oshishi natijasida ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etish faqatgina hukumatning mas'uliyati bo'lmaydi, jamiyatning o'zi ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadi.

3. Chet el investitsiyalari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, odatda, budjet taqchilligi kuzatiladi. Bu ularga ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarni moliyalashtirishga xalaqit beradi. Shu o'rinda chet el sarmoyasi talab etiladi. Doimiy investitsiya oqimini saqlab turish uchun mamlakat sud tizimining mustaqilligini va qonun ustuvorligini ta'minlashi kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan yechimlarning bari sodda. Vaholanki, bu yechimlarning faol qo'llanishi ko'p ham kuzatilmaydi. Buning bosh sababi birinchi va uchinchi yechimlarning hukumat manfaatlariga, ikkinchi yechimning esa jamiyatning qisqa muddatli manfaatlariga mos kelmasligidir. Natijada, uzoq muddatli maqsadlar amalga oshmay qoladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Ular jamiyatning turli jihatlarini qamrab oladi. Quyida ularning ba'zilar bilan tanishib chiqish mumkin:

¹ <https://www.wired.com/2011/01/0121eyak-language-extinct-alaska>

1. BMT Qo'shma Dasturi. 2025-yil aprel oyida YUNISEF, BMT Taraqqiyot Dasturi, Yuksalish Harakati va Shveytsariya Hamkorlik va Taraqqiyot Agentligi ishtirokida o'zbekistonlik yoshlar uchun maxsus dastur yo'lga qo'yildi. Bu dastur ko'p tarmoqli bo'lib, o'zbekiston yoshlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy salohiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Unga Shveytsariya tomonidan 2 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi.¹

2. Tech4Impact Social & Green Innovation Hub. Ushbu tashkilotlar 2019-yildan buyon ayollar, asosan, qizlar o'rtasida dasturchilikni yoyish bilan shug'ullanib kelmoqda. Bu tashabbusning ahamiyatli jihati shundaki, u jamiyatimizning ham konservativ, ham liberal qatlamlarining qarashlariga mos keladi. Shuningdek, ular tomonidan O'zbekiston bo'ylab yashil texnologiyalar bo'yicha startaplar qo'llab-quvvatlanmoqda.²

3. WikiStidendiya. Bu loyiha 2022-yilda boshlangan bo'lib, Yoshlar Ishlari Agentligi va boshqa tashkilotlar ko'magida tuzilgan. Loyiha Wikipedia saytidagi o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi maqolalar sonini ko'paytirishga qaratilgan. Bu nafaqat o'zbek va qoraqalpoq tillarining pozitsiyasini mustahkamlaydi, balki chet tillarini bilmaydigan aholi uchun oson ma'lumot olishga imkon yaratadi. Shuningdek, ushbu loyiha tarkibida ko'plab tag-loyihalar ham tashkil etilmoqda.³

4. Yevropa Ittifoqi ko'magidagi loyihalar. 2025-yil aprel oyida O'zbekistonga kelgan Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi qariyb 2.9 million yevrolik 5ta loyihani ishga tushirdi. Ushbu loyihalar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlashga doir faoliyat bilan shug'ullanishi nazarda tutilgan. Ushbu loyihalarining bosh ustunligi mablag' emas, balki yuksak texnologiyalar, dasturlar va g'oyalardadir.⁴

5. Art Station. 2022-yil Samarqand shahrida tashkil etilgan bo'lib, "Art Station" loyihasi turli ta'lim dasturlari, ko'rgazmalar orqali yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlaydigan san'at galereyasi va klasteri deb bilinadi. Shuningdek, tashkilot O'zbekistonning madaniy merosini jahonga tanitish bilan ham faol shug'ullanib kelmoqda. Bu mamlakatimizning jahondagi imijini yaxshilaydi va turizm oqimining oshishiga ham olib kelishi mumkin.⁵

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun (va, shuningdek, rivojlangan va qoloq mamlakatlar uchun ham) iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik jihatidan foydali va samarali yechimdir. Yuqorida sanab o'tilgan afzalliklar va muammolarga keltirilgan yechimlar mamlakatlarni tezroq ijtimoiy innovatsiyalarga sarmoya kiritishiga va bu orqali taraqqiyotga erishishlariga olib kelishi mumkin. Bu XXI asrdek davrda nihoyatda dolzarbdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

¹ <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-release/un-joint-programme-launched-strengthen-child-and-youth-inclusive-local-governance>

² <https://www.tech4impact.uz/uz>

³ <https://www.en.wikipedia.org/wiki/WikiStipendiya>

⁴ https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/european-union-launches-civil-society-initiatives-support-uzbekistan%E2%80%99s-reform-agenda_en?u

⁵ https://www.en.wikipedia.org/wiki/Art_Station_in_Samarkand

1. Mulgan, Geoff; Tucker, Simon; Ali, Rushanara; Sanders, Ben (2007). Social Innovation: What It Is, Why It Matters and How It Can Be Accelerated (Report). ISBN 978-1-90-5551-03-3.
2. <https://data.worldbank.org/indicator/IT.NET.USER.ZS>
3. <https://www.wired.com/2011/01/0121eyak-language-extinct-alaska>
4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-release/un-joint-programme-launched-strengthen-child-and-youth-inclusive-local-governance>
5. <https://www.tech4impact.uz/uz>
6. <https://www.en.wikipedia.org/wiki/WikiStipendiya>
7. https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/european-union-launches-civil-society-initiatives-support-uzbekistan%E2%80%99s-reform-agenda_en?u
8. [https://www.en.wikipedia.org/wiki/Art Station in Samarkand](https://www.en.wikipedia.org/wiki/Art_Station_in_Samarkand)

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.